

Date: 15th May-2025

MAISHIY KIMYOVIY VOSITALAR VA ULARDAN FOYDALANISH
TEXNOLOGIYASINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH

Ismailova Momogul Hamraboy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Yaqubova O'g'iljon Saliyjon qizi

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim 3-kurs talabasi

Eshchanova Saxiba Kadirberganovna

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim 1-kurs talabasi

Matyakubova Ozoda Farxod qizi

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maishiy kimyoviy vositalar va ulardan foydalanish texnologiyasini o'quvchilarga o'rgatish. O'quvchilarga maishiy kimyoviy vositasidan foydalanish usullari haqida ma'lumot berish. O'quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o'rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Texnika xavfsizligi qoidalari, ish o'rnini tashkil qilish qonun qoidalarini tushuntirish, sanitariya -gigiyena talablariga to'liq rioya etishni o'rgatish. O'quvchilarning maishiy kimyoviy vositasidan foydalanish usullari haqidagi bilimlarini oshirish.

Аннотация: Обучение студентов технологии использования бытовой химии и коммунальных услуг. Предоставить студентам информацию о способах использования бытовой химии. Воспитание воспитанников в чистоте, усердии. Объясните потребности в жизни и их использование. Разъяснение правил безопасности оборудования, организации рабочего места, законодательства, обучение полному соблюдению санитарно-гигиенических требований. Повышение знаний учащихся о методах использования бытовой химии.

Annotation: Teaching students the technology of using household chemicals and utilities. To provide students with information about ways to use household chemicals. Teaching pupils cleanliness and diligence. Explain the needs in life and their use. Explanation of the rules of safety of equipment, organisation of the workplace, law, teaching of full compliance with sanitary and hygienic requirements. Increasing students' knowledge of methods of using household chemicals.

Kalit so'zlar: drenajlovchi moddalar, kimyoviy vositalar, kimyoviy preparat, tabiiy vositalar, ammiak, xantal kukuni.

Ключевые слова: Дренажные средства, Химикаты, Химический препарат, Природные воски, Аммиак, Горчичный порошок.

Keywords: Drainants, Chemicals, Chemical Preparation, Natural Waxes, Ammonia, Mustard Powder.

Kirish: Maishiy kimyoviy vositalarga yuvish kukunlari, kafel tozalash vositalari, idish yuvgichlar, yog' eritgichlari, drenajlovchi moddalar va tabiiy vositalar kiradi.



Date: 15th May-2025

Maishiy kimyoviy vositalarga yuvish kukunlari, kafel tozalash vositalari, idish yuvgichlar, yogʻ eritgichlari, drenajlovchi moddalar va tabiiy vositalar kiradi.

Kimyoviy preparatlarni qoʻllash uydagi atmosferani yaxshilashga yordam bermaydi. Boshqa moddalarni yoʻq qilish xususiyatiga ega boʻlgan moddalar (hatto iflos boʻlsa ham) inson tanasiga zarar yetkazishi mumkin.



Kimyoviy preparatlarni qoʻllash uydagi atmosferani yaxshilashga yordam bermaydi. Boshqa moddalarni yoʻq qilish xususiyatiga ega boʻlgan moddalar (hatto iflos boʻlsa ham) inson tanasiga zarar yetkazishi mumkin.

Maishiy tozalovchi vositalardan foydalanish qoidalari

1. Maishiy kimyoviy tozalovchi vositalardan foydalanishdan oldin qoʻllarga mahsus qoʻlqop taqib oling.
2. Maishiy kimyoviy tozalovchi vositalardan foydalanishdan oldin ehtiyot chorasi sifatida yuzingizga niqob taqib oling.
3. Maishiy kimyoviy tozalovchi vositalardan foydalanishda vositalarda koʻrsatilgan yoʻriqnomaga qatʼiy amal qiling.



Date: 15th May-2025



Maishiy vositalarni tozalash uchun o'nlab usullar mavjud. Bunday aralashmalarning ko'plab mashhur retseptlari deyarli har qanday uyda topilgan ingredientlarni o'z ichiga oladi. Bu, birinchi navbatda, soda va sirka, limon kislotasi va ammiak, xantal kukuni va xamirni pishirish kukuni. Va tayyor tijorat mahsulotlarini ishlatishni afzal ko'rganlar uchun zamonaviy uy kimyoviy moddalari gaz plitalarini tozalash uchun samarali vositalarning katta tanlovini ta'minlaydi. Uyni yig'ishtirish va uy-ro'zg'or jihozlarini tozalashda maishiy kimyoviy vositalardan foydalanish bo'yicha quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish kerak.

Vannalarni tozalash

Vannani o'qishga ketishdan oldin yuvib chiqishga ulgurish qiyin, biroq siz ketishdan oldin unitazga tozalovchi suyuqlikni quyib, o'qishdan qaytgach cho'tka bilan uni tezda tozalab yuborsangiz bo'ladi.

Oshxonani tozalash

Oshxonani tozalashga kirishishdan oldin gaz plitasi sirtida qotib qolgan dog'larni yumshatish uchun uni yog'ga qarshi vosita bilan ishlov berish lozim. Tozalovchi vosita gaz plitasi ustiga surtib 20 yoki 30 minutga ivitib qo'yiladi. Dog'lar yumshagunga qadar siz boshqa ishlaringizni qilib turishingiz mumkin.

Gazlamadan foydalanish.

Gazlamadan iloji boricha unumli foydalanish uchun uni to'rt buklab olinadi. Shu tariqa to'rtta ishchi yuza hosil bo'ladi va bu bilan gazlamani chayishga ketadigan vaqtingiz tejalishi mumkin.

Dog' yoki uncha ifloslanmagan yerlarni tozalash

Dog' yoki uncha ifloslanmagan yerlarni tozalashda gubkaning abraziv tomonidan foydalanmaslik kerak, chunki u sirtga zarar yetkazishi mumkin. Yashil abrazivga ega gubkalardan esa oshxonani tozalashda umuman foydalanmaslik kerak. Buning uchun oq yoki abrazivli gubkalardan foydalanish lozim.

Yuqori darajada dog'larni tozalash.

Agar dizenfeksalash va yaxshilab tozalash kerak bo'lgan joylar bo'lsa tozalashni avval shu joydan boshlang. Bu joylarga buning uchun mo'ljallangan vositalarni surtib qo'yib, boshqa ishlaringizni bajarishingiz mumkin. Albatta, bu vositalarning ta'sir qila boshlaguncha biroz kutish kerak.. 5 daqiqagacha.

Qo'l yetishi qiyin bo'lgan joylarni tozalash.

Qo'l yetishi qiyin bo'lgan joylarni tozalash - burchaklar santexnikadagi, idishlardagi, maishiy jihozlardagi kichik oyoqchalarni tozalashda cho'tkalardan foydalanish mumkin.

Muzlatgichni tozalash.

Muzlatgichni tozalash va undagi yoqimsiz hidlarni yo'qotish uchun shamollatishdan sizni xalos etishda faollashtirilgan ko'mir yordam beradi.

Televizor va uy texnikasini tozalash.

Televizor va uy texnikasini salfetka bilan artayotganda ularning ekrani va orqa yuzalariga antistatik (yuzalardan elektr statik kuchlanishni bartaraf qilish uchun mo'ljallangan vosita) seping.

Date: 15th May-2025

Sirtlardagi dog‘larni tozalash

Sirtlarda dog‘ qolmasligi uchun ularni betartib yoki aylanma yo‘nalishda artmaslik kerak. Yaxshisi ularni gorizantal yoki vertikal yo‘nalishda artish ma‘qul. Agar sirt murakkab tuzilishga ega bo‘lsa, unda uni tuzilishi yo‘nalishi bo‘yicha artish lozim. Oddiy mato o‘rniga mikrofibradan (maxsus mato) foydalanib, ancha vaqt tejashingiz mumkin.

Uyni tozalash

Uyni birinchi changyutgich bilan tozalab, keyin uy jihozlar changini artgan ma‘qul. Aks holda uyga va jihozlarga yana chang o‘tirishi mumkin.

Foydali maslahatlar

Uyni ta‘mirdan chiqarganlar uchun maslahat : poldagi oq qurilish changidan qutilish uchun uni avval sirka qo‘shilgan oddiy suv bilan (1 litr suvga 2 osh qoshiq nisbatida) va shundan so‘ng pol yuvish uchun mo‘ljallangan vosita bilan artib chiqish lozim. Bu usul pol sirtini bekam-u ko‘st tozalashga imkon beradi. Agar oshxonadagi havoni so‘rib oluvchi qurilmaga qandaydir kimyoviy vosita sababli shkast yetgan bo‘lsa, bu nuqsonni berkitish mumkin. Buning uchun shikastlangan yuzani o‘simlik moyi bilan artib tashlash kerak. Idishlarni yuvish uchun mo‘ljallangan hamma vositalar ham chashkadagi choy yoki qahva dog‘ini birday yaxshi ketkaza olmaydi. Chashkalar oqarish o‘rniga sarg‘ayib qoladi. Bu dog‘larni oddiy ichimlik sodasi yordamida ketkazish mumkin. Gubkaning yumshoq tarafiga kam miqdorda soda surtib, idishni u bilan artiladi. Idish xuddi yangidek bo‘ladi.

Xulosa: Hozir do‘kon peshtaxtalarida maishiy kimyo mahsulotini sotib olayotgan xaridorlar uning iste‘mol muddatidan tashqari tarkibiy xavfsizligiga ham e‘tibor qarata boshladi. Bu yaxshi holat, albatta. Shu sababli ishlab chiqaruvchilar endilikda mahsulot yorlig‘ida “ishqorsiz modda”, “yashil texnologiya”, “ekologik sof mahsulot” singari reklama targ‘ibot yozuvlarini keng qo‘llashmoqda. Marketologlar olib borgan tadqiqotlarga ko‘ra, ro‘zg‘orda yaqin dastyor bo‘lgan maishiy kimyo mahsulotlarining bexatarligi uchun o‘rta statistik xaridor qimmatroq tannarxga ham rozi bo‘ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharipov Sh. S., Qo‘ysinov O. A., Toxirov O‘. O., Abdullayeva Q. M., Nasrullayeva F. A., Madaipov A. A. Texnologiya : 6-sinf uchun darslik / – Toshkent : Respublika ta‘lim markazi, 2021.
2. Sharipov SH.S., Qo‘ysinov O.A., Abdullayeva Q. Texnologiya: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2017
3. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. O‘quv qo‘llanma. – T.: “TDPU”, 2011.-

